**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**

Rektor G.Rixsiyeva

____________________

2021 yil “28” 08

# ARXIVSHUNOSLIK
# FANINING O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200 000 – San’at va gumanitar fanlar |
| **Ta’lim sohasi:** | 220000 –Gumanitar fanlar |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 60220300– Tarix (Sharq mamlakatlari va mintaqalari bo‘yicha) |

**Toshkent – 2021**

| | |
|---|---|
| | Isakova M.S. – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti ilmiy xodimi |



| Fan/modul kodi | O‘quv yili | Semestr | ECTS - Kreditlar |
|---|---|---|---|
| ASK102 | 2021-2022 | 1 | 2 |
| **Fan/modul turi** | **Ta’lim tili** | | **Haftadagi dars soatlari** |
| Majburiy | O‘zbek/rus | | 2 |

| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg‘ulotlari (soat) | Mustaqil ta’lim (soat) | Жами юклама (soat) |
|---|---|---|---|---|
| | **Arxivshunoslik** | 30 | 30 | 60 |

**2. I. Fanning mazmuni**

**Fanni o‘qitishdan maqsad** – talabalarda Sharqda, jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasida arxivshunoslik va arxiv ishining yo‘lga qo‘yilishini o‘rgatish hamda ulr ni amaliyotda tadbiq etish ko‘nikmasini hosil qilishdan iborat.

**Fanning vazifasi** – nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, talabalarga Markaziy Osiyo hududida arxiv ishining vujudga kelishi va rivojlanishini davlatchilik tarixi bilan, kichik va katta davlat tashkilotlarining barpo qilinishi bilan uzviy bog‘liq holda o‘rgatish; Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlat tashkilotlarida devonxona ish yuritishi va arxivlashtirish tarixi hamda arxiv ishining taraqqiyot dinamikasini tahlil qilish; mustaqillik yillarida O‘zbekistonda zamonaviy arxiv sohasini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarning mazmun mohiyatini tushuntirish orqali arxivlarning jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyatini ochib berish.

**II. Asosiy nazariy qism (maruza mashg’ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. Arxivshunoslik kursining predmeti, metodologik asoslari, maqsad va vazifalari.**

“Arxiv” atamasining ma’nosi. Arxivlar haqida tushuncha. Arxivshunoslik

fanining predmeti va ob'ekti. Arxivlar, arxiv hujjatlari, arxiv isini tashkil qilish va rivojlantirish omillari hamda uslublari. Fanning maqsadi va vazifasi. Davlatchilikda mahkamachilik ish yuritish tizimi, devonxona ish usullari va arxivlashtirish tarixi, arxiv muassasalari faoliyatining xususiyatlari. Arxiv ishining nazariy-uslubiy va amaliy jihatlari. Qadimgi zamon arxivlarining tarixiy funksiyalari, davlatchilik jarayonlari rivojida arxivshunoslikning ahamiyati. Yosh tarixchi-sharqshunos kadrlarda arxiv tarixi faktlaridan oʻz ilmiy va amaliy faoliyatlarida samarali foydalanish malakasi hamda koʻnikmasini hosil qilish. Oʻzbekiston Respublikasida arxivlarga berilayotgan e'tibor. Oʻzbekiston Oliy Majlisi tomonidan "Arxivlar toʻgʻrisida"gi Qonunning va boshqa me'yoriy hujjatlarning qabul qilinishi. Arxiv ilmining kengayishi. Arxivlarning hozirgi jamiyat hayotidagi oʻrni.

**2- mavzu. Markaziy Osiyoda qadimgi yozuvlar, yozuv madaniyati va arxiv ishining vujudga kelishi. Yunon-Baqtriya, Parfiya va Kushonlar davrida davlat ish yuritish an'analari va arxivlar.**

Markaziy Osiyoda paydo boʻlgan ilk davlat uyushmalari. Katta Xorazm, Baqtriya va Soʻgʻdiyona, ularda davlat ish yuritilishi masalasi. Oromiy yozuvining Oʻrta Osiyoga kirib kelishi. Markaziy Osiyoda mil. avv. V-IV asrlardan boshlab oromiy alifbosi asosida, uning harflarini mahalliy tillar fonetik xususiyatlarini ifodalashga moslashtirilgan mustaqil alifboli yozuvlar - parfiyoniy, xorazmiy, sugʻdiy, oramiy-boxtariy yozuvlarining paydo boʻlishi.

Sugʻd yozuvi mavqeining koʻtarilishi. Sugʻd yozuvining mugʻul, manchjur va koreys xalqigacha yetib borishi. Markaziy Osiyoga arab yozuvining rasman kirib kelishi.

Yunon-Baqtriya, Parfiya va Kushonlar davrida davlat ish yuritish an'analari va arxivlar. Yunon-Boxtar davlatida mil.avv. III asr oʻrtalaridan I asr oʻrtalarigacha yunon yozuviga amal qilinishi.

Parfiya davlati. Parfiya davlatidan arxivlarning topilishi. Arxiv hujjatlarida




9. Исхаков М.М. Центральная Азия в системе мировой письменной культуре (древность и раннее средневековье). Монография. – Т.: ТашГИВ, 2008.
10. Madraimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik. Darslik. - Toshkent. "Fan", 2007; Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008.
11. Nicolas Sims Williams. Bactrian documents. Monograph - Oxsford. 2001.
12. Report on archives in the enlarged European Union Increased archival cooperation in urope: ction plan. Luxembourg: Office for Official Publications o f the European Communities., Monograph. Belgiya. - 2005.
13. T.R.Schellenberg. Modem archives. Princihles Techniques. Chicago. Monograph - 2003.


**Axborot manbalari**


14. www.istedod.uz
15. www.rambler.ru
16. www.vandex.ru
17. www.google.uz
18. www.zivo.net
19. www.sentrasiva.ru


| | |
|---|---|
| 7. | Oʻquv dasturi "Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va etnologiyasi" kafedrasida ishlab chiqilgan va 2021 - yil "27" 08 dagi "1" –sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.<br>Oʻquv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2021 - yil "28" 08 dagi "1" -sonli bayoni bilan tasdiqlangan. |
| 8. | **Fan/modul uchun mas'ul:**<br>R.R.Alimova - TDSHU, "Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va etnologiyasi" kafedrasi mudiri, tarix fanlari nomzodi, dotsent |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>Rahmonqulova Z. – OʻzMU, "Manbashunoslik" kafedrasi mudiri, t.f.n., dotsent |

| | |
|---|---|
| | • amaliy mashgulotlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| **5.** | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va jiriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan fazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirishi lozim. |
| **6.** | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. Is’haqov M.M., Alimova R.R. Arxivshunoslik. Darslik. – T., 2020.<br>2. Is’haqov M.M., Alimova R.R. Arxivshunoslik. O’quv qo‘llanma. – T., 2017.<br>**Qo‘shimcha adabiyotlar**<br>3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.<br>4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2016.- 56 b.<br>5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. - 48 b.<br>6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. - 488 b.<br>7. Алимов И.А. Архившунослик.Ўкув кўлланма. – Тошкент. Тафаккур бўстони, 2015.<br>8. Ахмедов Б. Ўзбекистан халклари тарихи манбалари. (Кадимги ва ўрта асрлар). - Т.: Ўкитувчи, 1991. |



| | |
|---|---|
| | xo‘jalik, ijtimoiy-iqtiisodiy va siyosiy hayot to‘g‘risidagi ma’lumotlarning aks etishi. Qadimgi parfiyoniy tilli hujjatlarning Eski Niso – Ashxabod yaqinidagi Bagir tepaligidan topib o‘rganilishi. Eski Niso arxivi nomi bilan tarixga kirgan parfiya arxiv hujjatlari qadimgi tariximizni o‘rganishda muhim manba.<br>Kushonlar saltanati hukmronligi davrida Markaziy Osiyo. Kushonlar davrida yunon-baqtriya yozuviga rasmiy yozuv tusining brilishi. Surxko‘tal (Shimoliy Afg‘onistonning Bog‘lon viloyati) yodgorligi yozuvlari. Ayrtom yodgorligi arxivi. Afg‘onistondagi Ravatak qishlog‘idan shu davrga taalluqli arxiv hujjatlarining topilishi. Yozuv materiallari. Ravatak hujjatlarininng tahlili.<br>**3-mavzu. Afrig‘iylar davriga oid Tuproqqal’a arxiv hujjatlari. Mug‘ tog‘i sug‘d hujjatlari.**<br>O‘rta Osiyoda Afrig‘iylar saltanati. Markaziy Osiyoda yangi yozuv tizimlarining vujudga kelishi. Davlat devonxonalarida mahalliy tillarda ish yuritishning boshlanishi. S.P.Tolstov rahbarligidagi ekspeditsiya tomonidan Tuproqqal’a arxivining (mil. III-IV asr boshi) topilishi. Tuproqqal’a arxiv hujjatlari yozuv materiallari. Charm, yog‘och va tayoqlarga yozilgan hujjatlar. Teriga yozilgan va loy (kesak) parchalariga singib qolgan hujjatlar. Yog‘ochga yozilgan hujjatlar. “K”, “Г”, “П” shifr raqam belgilari. Arxiv hujjatlari tahlili. Davlat ish yuritishining o‘ziga xos xususiyati.<br>Sug‘d yozuvlari namunalarining Markaziy Osiyo mintaqasidan - Afrosiyob, Panjirent, Mug‘ tog‘i, Yerqo‘rg‘on, Sharqiy Turkiston, Turkmaniston, Pokiston, Mongoliyadan va boshqa joylardan topilishi. Sug‘d yozuvining mil.av. III asrlarda paydo boiishi. Sug‘d yozuvlari dastlab Zarafshon vohasidan topilgan kumush tangalarda uchshi. Sug‘d yozuvlari namunalarining ro‘zg‘or buyumlarida uchrashi: Uraldagi Kopchik qishlog‘i, Perm viloyati. Sharqiy Turkistonning Dunxuan yaqinidan sug‘d yozuvida yozilgan “Eski xatlar” matnlarining topilishi. O‘zbekistondan topilgan sug‘d yozuvi namunalari: Farg‘onada Quva, Afrosiyobning Panjikent xarobalari, |

| | |
|---|---|
| | Qarshi yaqinida Yerqo‘rg‘on sug‘d yozuvi.<br>Mug‘ tog‘i sug‘d hujjatlari. Hujjatlarning topilishi va o‘rganilishi. Mug‘ qal’asi qo‘rg‘onining xarobalaridan topilgan sug‘d, arab, xitoy va turk tilidagi hujjatlar. Hujjatlar A, B, V belgilari bilan shifrlashtirilganligi. Mug‘ tog‘i hujjatlari yozilgan materiallar - charm, taxta va qog‘oz. Mug‘ tog‘i sug‘d hujjatlarining “Mug‘ togi sug‘d hujjatlari” to‘plamida e ’lon qilinishi. Hujjatlar tahlili. Xo‘jalik hujjatlari. Yuridik hujjatlar. Sug‘d hujjatlarini o‘rgangan va e’lon qilgan olimlar - I.Yu.Krachkovskiy, A.Freyman, V.A.Livshits, M.N.Bogolyubov, O.I.Smirnova, M.Is’hoqovlar. Sug‘d hujjatlarini guruhlashtirish - xatlar, xo‘jalik va yuridik hujjatlar.<br>**4-mavzu. Markaziy Osiyoda o‘rta asrlar (IX-XVI asr boshi) davlat ish yuritishining taraqqiysi.**<br>IX-XVI asrlarda Markaziy Osiyo davlatlarida davlat ish yuritish ishi. Somoniylar davri boshqaruv tizimi va uning o‘rganilishi. Hujjatchilik masalasi. XIII-XIV asrlarda Buxoroda vaqf hujjatlarining yuritilishi. O.D.Chexovich va uning asarlarida hujjatlarning o‘rganilishi masalasi. XIV-XVI asr boshlarida arxiv ishi. Amir Temur va Temuriylar davrida davlat boshqaruv tizimi. Temur va temuriylar davri arxiv hujjatlari. “Maktuboti Temuriya”, “Maktuboti Allomiy”, “Muraqqayi Mir Alisher” hujjatlar to‘plamlari va ulaming qiysiy tahlili.<br>**5-mavzu. So‘nggi o‘rta asrlarda davlat devonxonalarida ish yuritish: Jo‘ybor xo‘jalari arxivi, Buxoro amirligi Qushbegi arxivi, Xiva va Qo‘qon xonliklari arxivlari.**<br>XVI-XVII asrlarda Jo‘ybor xo‘jalarining Movarounnahr ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-siyosiy hayotidagi orni. Jo‘ybor xo‘jalari arxiv hujjatlari Jo‘ybor xo‘jalari xo‘jalik faoliyatini o‘rganishda muhim manba. Jo‘ybor xo‘jalari arxivi tadqiqotchilari. Ye.E.Bertels va P.P.Ivanovlar. Buxoro amiri Qushbegi arxivi. |



| | |
|---|---|
| | 8. O‘zbekistonda arxiv ishi (1917-1991).<br>9. Mustaqillik davrida O‘zbekistonda arxiv ishining takomili.<br>Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. |
| **3.** | **V. Ta’lim natijalari / Kasbiy kompetentsiyalari**<br>Talaba bilishi kerak:<br>• Markaziy Osiyo mintaqasi qadimgi yozuv madaniyati shakllangan mintaqalar doirasiga kirishi; mil.av. I ming yillikning o‘rtalarida Markaziy Osiyoda davlat mahkamachilik tizimi yuzaga kelishi; xo‘jalik va ijtimoiy-siyosiy hayotni davlat devonxonalari tomonidan nazorat qiluvchi kotibiyat faoliyati rivojlana boshlaganligi haqida ***tasavvur va bilimga ega bo’lishi;***<br>• Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlarining xo'jalik, ijtimoiy-siyosiy hayotini o‘zida akt ettirgan hujjatlami o‘qiy olishi, arxiv hujjatlarida aksini topgan tarixiy voqea hodisalami to‘g‘ri tahlil qila olishi; unda berilgan ma’lumotlarni tahlil eta olish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi***;<br>• Markaziy Osiyo xalqlarining devonxona ish yuritish an’anasi bo‘yicha egallangan bilimlardan ilmiy-amaliy va pedagogik faoliyatda foydalanish; mamlakatimis xalqlari tarixida amal qilgan arxivlashtirish bo‘yicha ma’lumotlarni boshqa mamlakatlarning ish yuritish an’anasi bilan solishtirish, mustaqillik yillarida O‘zbekistonda zamonaviy arxiv sohasini modernisatsiyalash bo’yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarning mazmun mohiyatini anglashi; chet mamlakatlarda arxivchilik sohasida qollanilayotgan yangi usullarning afzalligini ko‘rsata bilishi va ulardan foydalana olish ***malakalariga ega bo‘lishi kerak.*** |
| **4.** | **VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma’ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar; |

4. Mug‘ tog‘i so‘g‘d hujjatlari.
5. Markaziy Osiyoda o‘rta asrlar (IX-XVI asr boshi) davlat ish yuritishining taraqqiysi.
6. So‘nggi o‘rta asrlarda davlat devonxonalarida ish yuritish: Jo‘ybor xo‘jalari arxivi, Buxoro amirligi Qushbegi arxivi, Xiva va Qo‘qon xonliklari arxivlari.
7. Turkiston o‘lkasi mustamlaka davri arxivi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari). O‘zbekistonda arxiv ishi (1917-1991).
8. Mustaqillik davrida O‘zbekistonda arxiv ishining takomili.

Amaliy mashg‘ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem guruhga bir professor-o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi zarur. Mashg‘ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagog va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

**IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar.**

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Markaziy Osiyoda yozuv, yozuv madaniyati tarixi va arxiv ishining vujudga kelishi
2. Yunon-Baqtriya, Parfiya va Kushonlar davrida davlat ish yuritish an’analari va arxivlar.
3. Afrig‘iylar davriga oid Tuproqqal’a arxiv hujjatlari.
4. Mug‘ tog‘i so‘g‘d hujjatlari.
5. Markaziy Osiyoda o‘rta asrlar (IX-XVI asr boshi) davlat ish yuritishining taraqqiysi.
6. So‘nggi o ‘rta asrlarda davlat devonxonalarida ish yuritish: Jo‘ybor xo‘jalari arxivi, Buxoro amirligi Qushbegi arxivi, Xiva va Qo‘qon xonliklari arxivlari.
7. Turkiston o‘lkasi mustamlaka davri arxivi (XIX asr oxiri - XX asr boshlari).



Arxiv hujjatlarining o‘rganilishi. Buxoro amiri Qushbegi arxivi Buxoro amirligidagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotni o‘rganishda muhim manba. Hujjatlarda Buxoro amirligidagi aholi qishloqlari haqidagi ma’lumotlar tahlili. “Qushbegi arxivi” I-126 fondi va ularning ma’muriy, siyosiy, tashqi aloqalar, iqtisodiy, sud, harbiy, madaniyat va urf-odat, sog‘liqni saqlash, oqartuv va din, kabi bo‘limlari, daftar va jurnallar.

Xiva xonligi Qozilik arxivining 1936 yilda sharqshunos olim P.P.Ivanov tomonidan Leningraddagi Saltikov-Shedrin nomidagi xalq kutubxonasidan topilishi. Xiva xonligi hujjatlarining Toshkentdagi Markaziy Davlat arxiviga topshirilishi (1961 yil). Hujjatlarning tahlili. Xiva arxiv hujjatlari xonlikning davlat va ma’muriy tuzilishi, yer egaligi va yer solig‘i, zakot va harbiy tuzilish, boshqa yurtlarga urush safari qilish, hunarmandchilik va savdo-sotiq, Xiva xonligining Rossiya, Buxoro va Qo‘qon xonligi bilan munosabatlari bo‘yicha muhim manba.

Qo‘qon xonligi arxivining 1939-yilda Peterburgdagi Saltikov-Shedrin nomidagi xalq kutubxonasi yerto‘lasidan topilishi. Hujjatlarning XIX asr tarixiga taalluqli ekanligi. 1952-yildan arxivni saralash va qayta ishlashning boshlanishi. Hujjatlar aksariyat qismining Sheralixon (1842-1845), Mallaxon (1858-1862) va Xudoyorxonning 1866-1875-yillar hukmronlik yillariga to‘g‘ri kelishi va ularning xo‘jalik xarakteridagi hujjatlar ekanligi.

**6-mavzu. Turkiston o‘lkasi mustamlaka davri arxivi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari). O‘zbekistonda arxiv ishi (1917-1991 yy.).**

Turkistonning Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinganidan so‘ng davlat ish yuritish ishi. Turkiston general-gubernatorligining tashkil qilinishi. Turkiston general-gubernatorligi kanselyariyasi va ish yuritish tizimi. Turkiston o‘lkasi boshqaruv tizimi. Turkistonda arxiv ishi. Arxivlarga munosabat. General-gubematorlik hujjatlarining O’zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida I-1 fondida saqlanayotganligi. Arxiv hujjatlari saqlanish holati va uning

oqibatlari. Muassasa rahbarlarining arxivlarga bee'tibor munosabatda bo'lganligi to'g'risida graf K.K.Palenning fikrlari. 1873-yil oktyabrda K.P.Kaufmanning Toshkentda Markaziy arxiv uchun bino qurish haqidagi farmoyishi va bino qurilishining 1876-yil 18-avgustda to'xtatilishi sabablari.

O'zbekistonda sho'rolar hokimiyatining o'rnatilishi. 1918-yil 1-iyunda RSFSR hukumatining "Arxiv ishini qayta qurish va markazlashtirish to'g'risida"gi dekretni qabul qilishi. Turkiston Respublikasi Markaziy Ijroiya Komiteti tomonidan (MIK) 1919-yil 5-noyabrda "Arxiv ishini qayta qurish va markazlashtirish to'g'risida"gi qarorning qabul qilinishi va uning amalga tadbiq etilishi. 1917-yilga qadar bo'lgan barcha idoraviy arxivlarning tugatilishi. Turkiston Respublikasi Yagona davlat arxiv fondi (YaDAF)ning tashkil qilinishi. YaDAFni boshqarish uchun Turkiston Respublikasi Arxiv ishi bosh boshqarmasining tashkil qilinishi. 1919-yil 15-noyabrda Arxiv ishi markaziy boshqarmasi tuzilishi. Joylarda viloyat arxiv bolimlari tashkil qilinishi. Turkiston Respublikasi Xalq Komissarlari Soveti (XKS)ning 1921-yil 25-yanvardagi "Viloyat arxiv fondlari to'g'risida"gi qaroriga asosan viloyat hududidagi barcha idoralar ish yuritish hujjatlari viloyat davlat arxivi fondining tarkibiy qismi deb e'lon qilinishi. 1924-yilda O'rta Osiyoda milliy-hudidiy chegaralanishning o'tkazilishi natijasida YaDAFning bo'linib ketishi. 1924-yil 28-dekabrda O'zSSR MITK huzurida O'zSSR Arxiv ishi markaziy boshqarmasining tashkil qilinishi haqidagi maxsus qaror. O'zbekiston hududidagi viloyatlar arxiv fondlarining O'zSSR Arxiv ishi markaziy boshqarmasiga topshirilishi. O'zSSR MIK va XKSning 1925-yil 22-iyul qaroriga asosan Yagona davlat arxiv fondi (YaDAF)ning tashkil qilinishi. 1930-yil 9-apreldan O'zSSR Arxiv ishi markaziy boshqarmasining O'zSSR Markaziy arxiv boshqarmasi deb o'zgartirilishi. 1939-yili respublika arxiv tashkilotlari O'zSSR MIK huzuridan O'zSSR ichki ishlar xalq komissariati (ПХК - NKVD) qaramog'iga o'tkazilishi. 1943-yil O'zSSR kino-foto-fono-hujjatlar markaziy davlat arxivi tashkil qilinishi. 1962-yilda O'zbekiston



meditsina hujjatlari markaziy davlat arxivining tashkil qilinishi. Sho'rolar davrida arxivshunoslik sohasida amalga oshirilgan o'zgarishlar, tashkilotlarda hujjatlarga munosabatning shakllanishi, hujjatlarning ilmiy ahamiyatini aniqlash, hujjatlarga ishlov berish sohasida erishilgan yutuqlar.

**7-mavzu. Mustaqillik davrida O'zbekistonda arxiv ishining takomili.**

Mustaqillik yillarida mulkchilik turlarining ko'payishi va hujjatlarni arxivlashtirish sohasidagi o'zgarishlar, arxivlarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bilan bog'liq tadbirlarning amalga oshirilishi. Nodavlat arxiv fondlarining tashkil qilinishi. Davlat va nodavlat arxiv fondlari O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi (O'zMAF)ga aylantirilishi. Mystaqillik davrida O'zbekistonda arxiv ishining takomili borasida amalga oshirilgan tadbirlar. O'zR Milliy arxiv fondi hujjatlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hujjatlar egasiga, tashkilotga maxsus guvohnoma berishning joriy etilishi. O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi (O'zR MAF) ning tashkil qilinishi. So'nggi yillarda arxiv ishini takomillashtirish bo'yicha hukumat qarorlarining qabul qilinishi va amalga tadbiq etilishi. Mustaqillik yillarida arxiv hujjatlarini butlash, respublikadan chetga olib chiqib ketilgan arxiv hujjatlarini O'zbekistonga qaytarib kelish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar. Respublikada arxiv ishi bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlashning yo'lga qo'yilishi.

## III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Markaziy Osiyoda qadimgi yozuvlar, yozuv madaniyati va arxiv ishining vujudga kelishi.
2. Yunon-Baqtriya, Parfiya va Kushonlar davrida davlat ish yuritish an'analari va arxivlar.
3. Afrig'iylar davriga oid Tuproqqal'a arxiv hujjatlari.